

## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA AXLOQIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION TIZIMI

Mamatova Aziza Maxamatdjonovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10805951>

“Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da barcha masalalar qatorida boshlang‘ich sinif o‘quvchilarini faoliyatga tayyorlash bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarga erishish vazifalari qo‘yilgan[1]. Bunda ayniqsa, boshlang‘ich sinif o‘quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirish jarayonida innovatsion tizimlardan ham foydalanish dolzarb bo‘lib turibdi. Bu o‘rinda e‘tiboringizni ana shu masalaning tahliliga tortamiz.

**Innovatsion tizimlar mazmuni.** Pedagogik ilmiy-tadqiqotlarda izoh berilganidek, innovatsion tizimlar – bu yangilik, noan‘anaviylik va kashfiyotchilik asoslariga tayangan holda ta‘lim va tarbiya jarayonini amalga oshirish majmuidir[2]. Shu jihatdan boshlang‘ich sinif o‘quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirishning innovatsion tizimlar mazmuni quyidagilardan iborat ekanligini eslatib o‘tish joiz:

a) boshlang‘ich sinif o‘quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirishda o‘qituvchilarning yangicha yondashuvlariga tayanish;

b) boshlang‘ich sinif o‘quvchilarini noodatiy muhitlar vositasida axloqiy fazilatlarini shakllantirishga yo‘naltirish;

v) boshlang‘ich sinif o‘quvchilarini o‘z xohish va istaklari asosida turli tarbiyaviy tadbirlar vositasida hamda bunday tadbirlarda ularning faol ishtirok etishini ta‘minlash bilan axloqiy fazilatlarini shakllantirish;

g) bolalar kinosi, teatr, san‘ati vositalari asosida bolalarning axloqiy muammolarini muhokama qilishga o‘rgatish bilan axloqiy fazilatlarini shakllantirish.

Mazkur asosiy innovatsion tizimlar boshlang‘ich sinif o‘quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirish mazmunini belgilaydi. Ulardan oqilona foydalanish uchun bugungi kunda umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida sharoitlar mavjudligini alohida ta‘kidlab o‘tish lozim. Shu sababli boshlang‘ich sinif rahbarlari ishtirokida bunday innovatsion tizimlardan foydalanish ishlarini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning natijasida boshlang‘ich sinif o‘quvchilari axloqiy fazilatlarni amaliyot vositasida o‘rganish imkoniyatlariga ega bo‘ladi va boshlang‘ich sinif o‘qituvchilarining axloqiy fazilatlar bo‘yicha nazariy tushunchalari amaliy talablar bilan uyg‘unlashadi. Buning uchun innovatsion tizimlardan foydalanish metodikasini ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turganligini eslatib o‘tish joiz.

**Boshlang‘ich sinif o‘quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirishning innovatsion shakllari.** Boshlang‘ich sinif o‘quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirish uchun yangicha yondashuvlar, metodikalar va texnologiyalarga asoslangan inovatsion shakllardan foydalanish kutilgan samarani beradi. Mazkur masalada bizningcha, quyidagi shakllardan amaliy foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

a) multimediali tasvirlar vositasida boshlang‘ich sinif o‘quvchilarining axloqiy fazilatlarini shakllantirish shakli;

b) boshlang‘ich sinif o‘quvchilarining axloqiy fazilatlar bo‘yicha treninglarini o‘tkazib borish innovatsion shakli;

v) boshlang‘ich sinif o‘quvchilarini namuna bo‘lishga asos bo‘luvchi turli ijodiy tanlovlarni o‘tkazish vositasida axloqiy fazilatlarini shakllantirish innovatsion shakli;

g) kompyuterli dasturlar asosida axloqiy o‘yinlar tayyorlash va ular vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirish innovatsion shakli.

Bunday innovatsion shakllar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘ziga jalb etuvchanligi, qiziqiligi va o‘quvchilarni amaliyot bilan tanishtiruvchi xususiyatlarga ega ekanligi bilan muhim ahamiyatga egadir. Biz mazkur innovatsion shakllardan biri bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloq to‘g‘risidagi tushunchalarini aniqlash uchun trening mashg‘ulotini haftalik pedagogik amaliyot davrida tajribadan o‘tkazib ko‘rdik. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari trening mashg‘ulotlarida juda yuqori qiziqish bilan ishtirok etdi va har bir o‘quvchi o‘zlari mansub guruh bilan yakdil hamkorlikda berilgan topshiriqlarni bajardi. Buning natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloq tushunchasiga oid fikrlarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lindi. Xatto bu masalada qiz bola o‘quvchilarning faolligi yubori darajada ko‘zga tashlandi. Demak, bunday innovatsion shakldan foydalanishda trening guruhini tuzish jarayonida ularda qiz bola va o‘g‘il bola o‘quvchilarning mavjud bo‘lishiga e‘tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning o‘zaro bir-birlariga nisbatan ijobiy ta‘sir ko‘lamini kengaytiradi. Xusolaga kelindiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirishning innovatsion shakllaridan foydalanishda o‘quvchilarning jamoa bo‘lib ishlashini tashkil qilishga e‘tibor qaratish muhim ahamiyatga egadir.

***Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirishning innovatsion san‘at shakli.*** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirishning innovatsion shakllaridan foydalanish uchun Musiqa madaniyati, Tasviriy san‘at, Tarbiya, Texnologiya kabi o‘quv fanlarining o‘qituvchilari faol bo‘lishi taqozo etiladi. Shu ma‘noda mazkur innovatsion shakldan foydalanish uchun bizningcha, quyidagi yo‘l tutish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy fazilatlar shakllanish jarayonini kuchaytiradi:

a) o‘quvchilarning yoqtirgan kuy, qo‘shiq va raqslar bo‘yicha yakka tartibdagi qisqa hajmli bayonlar o‘tkazish;

b) o‘quvchilarning qiziqishi va layoqatiga tayangan holda ularni turli rasmlar chizish amaliy mashg‘ulotlarini tashkil qilish;

v) plastilin, qog‘oz kabi o‘quv materiallari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ishlanmalarini yaratish mashg‘ulotlarini yo‘lga qo‘yish;

g) Tarbiya o‘quv fani bo‘yicha axloqiy fazilatlar insholarini o‘tkazib borish;

d) Texnologiya o‘quv fani vositasida o‘quvchilarga rabototexnika, nanotexnologiya kabi aslahalarni yaratish ishlarini tashkil qilish.

Bunday yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida birinchidan, tarkib topgan axloqiy fazilatlar majmuini namoyon qiladi; ikkinchidan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini axloqiy fazilatlar bo‘yicha tushunchalarini kengaytiradi. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘z ishlanmalarida tasavvuridagi g‘oyalar va ko‘nikmalaridan keng foydalanadi. Ularning ishlanmalarini tahlil qilish bilan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy fazilatlarining shakllanganlik darajasi, ular duch kelayotgan muammo va amalga oshiriladigan tadbirlar yo‘nalishlari bo‘yicha ma‘lumotlarga ega bo‘linadi.

E‘tibor berilsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari axloqiy fazilatlarini shakllantirishda innovatsion san‘at shaklidan amaliy foydalanish qiziqarliligi kutilgan natijani berishi bilan ahamiyatga egadir[3]. Shu sababli bu yondashuvdan foydalanish metodikasi bo‘yicha bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy malakasini tarkib toptirish bizningcha, kutilgan samarani beradi.

Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirishning innovatsion tizimi bugungi ehtiyojlar bilan bevosita bog'liqlikka egadir. Bu tizim mamlakatimizda amalga oshirilayotgan o'qitishning 4+2 modeli bilan ham bog'liqligi bilan diqqatni tortadi. Bu borada o'ziga xos amaliy yondashuvlarga tayangan metodikani ishlab chiqish dolzarb bo'lib turganligini idrok etib qolamiz.

#### **REFERENCES**

1. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”. // [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. Jabborova O., Tashpulatova D. ART texnologiya va kreativlik. – Toshkent, 2023
3. Mardonov Sh. Pedagogika fanidan o‘qitishning elektron-modulli didaktik ta‘minoti ishlab chiqish texnologiyalari. – Toshkent, 2021